

MINTAQA PAXTA-TO‘QIMACHILIK KLASTERLARINING IQTISODIY SALOHİYATIDAN FOYDALANISH JARAYONLARINI OPTIMALLASHTIRISH

Atajanova Guli Maxsudbekovna

Urganch Ranch texnologiya universiteti
“Iqtisodiyot” kafedrası o‘qituvchisi
Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Urganch davlat universiteti
mustaqil tadqiqotchisi.

ORCID: 0009-0004-0576-4082

E-mail: atajanovaguli28@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada mintaqa paxta-to‘qimachilik klasterlarining iqtisodiy salohiyatidan foydalanish jarayonlari tahlil qilindi. Tadqiqotda ishlab chiqarish samaradorligi, investitsiya hajmi, bandlik, innovatsion faollik va eksport ko‘rsatkichlari asosida klasterlar faoliyati baholandi. EFA (DEA) modeli yordamida resurslardan foydalanish darajasi va samaradorlik chegarasi aniqlangan. Natijalar klasterlar o‘rtasida samaradorlik tafovutlari mavjudligini ko‘rsatdi. Yuqori samarador klasterlar optimal resurs taqsimotiga erishgani aniqlangan. Past samarador klasterlarda texnologik modernizatsiya va boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish zarurligi asoslandi. Tadqiqot natijalari ishlab chiqarish hajmini oshirish, eksportni kengaytirish va mintaqaviy rivojlanishni jadallashtirishga xizmat qilishi ko‘rsatildi.

Kalit so‘zlar: paxta-to‘qimachilik klasterlari, iqtisodiy salohiyat, ishlab chiqarish samaradorligi, EFA modeli, investitsiya, eksport, innovatsiya, mintaqaviy rivojlanish.

Аннотация

В статье проанализированы процессы оптимизации использования экономического потенциала региональных хлопково-текстильных кластеров. Оценка деятельности кластеров проведена на основе показателей производственной эффективности, инвестиций, занятости, инновационной активности и экспорта. С применением модели EFA (DEA) определен уровень использования ресурсов и границы эффективности. Результаты показали наличие различий в эффективности между кластерами. Выявлено, что эффективные кластеры достигли оптимального распределения ресурсов. Для кластеров с низкой эффективностью обоснована необходимость технологической модернизации и совершенствования управления. Полученные результаты подтверждают возможность повышения объемов производства, расширения экспорта и ускорения регионального развития.

Ключевые слова: хлопково-текстильные кластеры, экономический потенциал, производственная эффективность, модель EFA, инвестиции, экспорт, инновации, региональное развитие.

Abstract

This article analyzed the processes of optimizing the use of economic potential in regional cotton-textile clusters. Cluster performance was evaluated based on

production efficiency, investment, employment, innovation activity, and export indicators. The EFA (DEA) model was applied to determine resource utilization and efficiency frontiers. The results showed significant differences in efficiency among clusters. Efficient clusters achieved optimal resource allocation. For less efficient clusters, the need for technological modernization and improvement of management mechanisms was substantiated. The findings demonstrated that optimizing cluster performance contributes to increased production volume, export expansion, and accelerated regional development.

Keywords: cotton-textile clusters, economic potential, production efficiency, EFA model, investment, export, innovation, regional development.

KIRISH

Milliy iqtisodiyotlarning raqobatbardoshligini mustahkamlashda klasterlar muhim mexanizm hisoblanadi. Bugungi kunda yetakchi mamlakatlar iqtisodiyotining qariyb yarmi klaster tuzilmalari bilan qamrab olingan. Paxta-to‘qimachilik klasterlarini tashkil etish paxtachilik rivojlangan mamlakatlar uchun muhim, ammo ularning to‘liq integratsiyasi kamdan-kam uchraydi. Paxta-to‘qimachilik klasterlarini shakllantirish va rivojlantirish mexanizmini o‘rganish global ahamiyatga ega, chunki tarmoqlar integratsiyasining muvaffaqiyatli misollari qishloq xo‘jaligi va to‘qimachilik tarmoqlarining raqobatbardoshligini oshirishga intilayotgan boshqa mamlakatlar uchun namuna bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Paxta-to‘qimachilik tarmog‘i O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida strategik o‘rinni egallab, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi va sanoat qayta ishlashini birlashtiradi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev¹ mamlakatimiz xomashyo bazasi katta salohiyatga ega ekanini, paxtani qayta ishlash orqali kamida 15 milliard dollarlik mahsulot ishlab chiqarish va qariyb 500 mingta yangi ish o‘rni yaratish mumkinligini ta’kidlaydi. 2019-yildan boshlab mamlakatda qayta ishlashni chuqurlashtirish, xomashyo eksportiga qaramlikni kamaytirish va to‘qimachilik sohasini rivojlantirish bo‘yicha uzoq muddatli strategiyaning bir qismi sifatida paxta xomashyosini eksport qilishni taqiqlash joriy etildi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Paxta-to‘qimachilik klasterlari agrar va sanoat sektorlarini integratsiyalash, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish hamda eksport salohiyatini kengaytirish nuqtai nazaridan tadqiq etilgan. B. V. Nasimovning ta’kidlashicha, paxta-to‘qimachilik klasterlari ishlab chiqarish tizimida resurslardan samarali foydalanish va logistika zanjirini to‘g‘ri tashkil etish muhim omil hisoblanadi. U klasterlarda ishlab chiqarish zaxiralarini ilmiy asosda boshqarish tannarxni kamaytirib, raqobatbardoshlikni oshirishini qayd etadi[1]. Xolikova R. S. paxta-to‘qimachilik klasterlarining ishlab chiqarish samaradorligini baholash metodikasini tadqiq qilib, klaster tizimi ishlab chiqarish jarayonini yagona sanoat zanjiriga birlashtirish orqali samaradorlikni oshirishini ta’kidlaydi[2]. Shadmanov B. S. klaster tizimini ishlab chiqarishning to‘liq qiymat zanjirini birlashtiruvchi iqtisodiy model sifatida izohlaydi. Paxta-to‘qimachilik

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti <https://president.uz/oz/lists/view/7168>

klasterlari – bu xom paxta yetishtirishdan tortib ip-kalava, mato, tayyor kiyim-kechak va eksport logistikasi zanjirigacha bo‘lgan ko‘p pog‘onali qiymat zanjirini yagona makonda uyg‘unlashtiruvchi tizimdir[3]. Gary Gereffi global ishlab chiqarish zanjiri (Global Value Chain) nazariyasini ishlab chiqib, to‘qimachilik sanoatida klasterlar muhim rol o‘ynashini ko‘rsatgan. Gereffi fikriga ko‘ra, zamonaviy sanoat tarmoqlari global qiymat zanjirlari orqali tashkil etilib, ishlab chiqarish bosqichlari turli mamlakatlarda joylashadi va bu tizim iqtisodiy rivojlanishga ta’sir qiladi[4]. B.A.Davlyatov[5] esa klasterlar orqali ish o‘rinlari yaratish, kichik biznesni rivojlantirish va eksport salohiyatini kengaytirish imkoniyatlarini tahlil qiladi. Shu asosda, paxta-to‘qimachilik klasterlarining rivojlanishi mintaqaning iqtisodiy salohiyati, texnologik integratsiya va boshqaruv mexanizmlariga bevosita bog‘liq ekanligi aniqlanadi. Ushbu adabiyotlar sharhi tadqiqotning dolzarbligini yanada tasdiqlaydi: paxta-to‘qimachilik klasterlarini rivojlantirish orqali mamlakatning agrar va sanoat integratsiyasi mustahkamlanadi, ishlab chiqarish samaradorligi va eksport salohiyati oshiriladi, shuningdek, mintaqada bandlik va iqtisodiy farovonlikni ta’minlash imkoniyati mavjudligi ko‘rsatiladi.

METODOLOGIYA

Tadqiqotda paxta-to‘qimachilik klasterlarining mintaqaviy rivojlanish modellari tahlil qilinib, asosiy e’tibor mintaqaviy salohiyat, ishlab chiqarish zanjiri, texnologik integratsiya va boshqaruv mexanizmlarining klaster samaradorligiga ta’siriga qaratildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Paxta-to‘qimachilik klasterlarining iqtisodiy salohiyati deganda paxta xomashyosini yetishtirishdan tortib tayyor to‘qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, qayta ishlash, ichki va tashqi bozorlarda realizatsiya qilishgacha bo‘lgan yagona ishlab chiqarish zanjirining iqtisodiy imkoniyatlari, resurslari va raqobatbardoshlik darajasi tushuniladi. Fikrimizcha, yuqoridagi tasnifga uyg‘un holda aytishimiz mumkinki, bu klaster tarkibidagi xo‘jalik subyektlari o‘rtasidagi kooperatsiya, texnologik integratsiya, innovatsion faoliyat hamda moliyaviy barqarorlik asosida yuqori qo‘shilgan qiymat yaratish salohiyatidir. Paxta-to‘qimachilik klasterlari agrar va sanoat tarmoqlarini o‘zaro bog‘lab, resurslardan samarali foydalanish, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va mahsulot sifatini oshirish orqali mintaqaning iqtisodiy o‘rishiga kuchli turtki beradi. Shu bois ularning iqtisodiy salohiyati ishlab chiqarish quvvatlari, texnologik yangilanish darajasi, investitsiya jozibadorligi hamda eksport imkoniyatlari bilan belgilanadi¹.

Shuningdek, paxta-to‘qimachilik klasterlarining iqtisodiy salohiyati ularning innovatsion faoliyatni yo‘lga qo‘yish, mahalliy xomashyoni chuqur qayta ishlash, ish o‘rinlari yaratish va hududiy daromadlar bazasini kengaytirishdagi hissasi orqali namoyon bo‘ladi. Bunda logistika infratuzilmasining rivojlanganligi, energiya ta’minoti, mehnat resurslarining malakasi va davlat tomonidan yaratilgan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari muhim o‘rin tutadi. Yuqori iqtisodiy salohiyatga ega klasterlar nafaqat milliy ishlab chiqarishning diversifikatsiyasiga, balki xalqaro

¹ Shao Yu., et al. Ramification of dyes for fiber-to-fiber recycling of cotton textiles. RCR. Vol 222, 2025, 108454

bozorda milliy brendlarning mustahkamlanishiga ham xizmat qiladi. Shu tariqa, paxta-to‘qimachilik klasterlari mamlakatning barqaror iqtisodiy o‘sishi va eksport salohiyatini oshirishda strategik ahamiyatga ega tarmoq sifatida ko‘riladi.

Xorazm viloyatining paxta-to‘qimachilik klasterlari ijtimoiy-iqtisodiy potensialini miqdoriy jihatdan tushuntiruvchi va kompleks aks ettiruvchi ko‘rsatkichlari sifatida quyidagilarni ko‘rib chiqamiz.

Asosiy natijaviylik indikatorlari:

- yalpi mahsulot yetishtirish hajmi (GPV — Gross Production Volume), mlrd so‘m;

- yalpi foyda marjasi (GPM — Gross Profit Margin), foiz;
- innovatsion faollik indeksi (IAI — Innovation Activity Index);
- eksport hajmi (ExV — Export Volume), ming AQSh dollari

Asosiy ta‘sir etuvchi indikatorlar:

- kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi (IV — Investment Volume), mlrd so‘m;

- klasterdagi o‘rtacha bandlik (CE — Cluster Employment), kishi;

- marketing xarajatlari (MC — marketing costs), mlrd so‘m;

- xomashyo narxlarining o‘zgaruvchanlik koeffitsiyenti (CVP — Coefficient of Variation of Prices);

- innovatsion ishlab chiqarish xarajatlari (IPC — Innovative Production Costs), mlrd. so‘m;


- texnologik innovatsiyarlarni joriy etish tezligi (ITI — the speed of introducing technological innovations), foiz

- logistika va transport xarajatlari (LTC — logistics and transportation costs), mlrd so‘m.

- mintaqada eksport infratuzilmasining rivojlanganlik darajasi (DEI — level of development of export infrastructure), foiz

Ushbu ko‘rsatkichlar asosida samaradorlik chegarasi tahlilini yoki boshqacha aytganda EFA (Efficiency Frontier Analysis) modellashtirish jarayonini ko‘rib chiqamiz. Bunga sabab, EFA modeli paxta-to‘qimachilik klasterlarining iqtisodiy faoliyat samaradorligini baholashda kuchli uslubiy dominantlikka ega bo‘lgan yondashuv hisoblanadi. Ushbu modelning mohiyati shundaki, u har bir klasterning ishlab chiqarish, moliyaviy va innovatsion resurslardan qay darajada optimal foydalangani (nisbiy optimalligi)ni aniqlash orqali ularning “eng yaxshi amaliyot” chegarasini belgilaydi. Ya’ni, EFA yordamida klasterlar o‘zining mavjud ishlab chiqarish quvvatlari, texnologik bazasi va inson kapitali salohiyatidan to‘liq foydalanib, yalpi mahsulot hajmini oshirish, sof foyda marjasini yaxshilash, innovatsion faollik indeksini ko‘tarish hamda eksport hajmini kengaytirish imkoniyatlariga matematik apparat sifatida oydinlik kiritadi. Model parametrik bo‘lmagan usulda samaradorlikni o‘lchagani uchun iqtisodiy jarayonlardagi shakl yoki funksional bog‘liqlikni oldindan belgilashni talab etmaydi, bu esa uni amaliy iqtisodiy modellashtirishda moslashuvchan qiladi. Natijada, EFA orqali klasterlarning har bir natijaviy indikator bo‘yicha potensial va real natijalar o‘rtasidagi tafovut aniqlanadi va

bu tafovutni qisqartirish yo‘llari strategik tahlil etiladi. Shu tariqa, EFA nafaqat mavjud resurslardan foydalanish samaradorligini baholaydi, balki ularning rivojlanish chegarasini ham ko‘rsatib beradi. Bu yondashuv orqali paxta-to‘qimachilik klasterlari uchun ishlab chiqarish hajmini oshirish, innovatsion faoliyatni kengaytirish va eksport salohiyatini mustahkamlashning optimal strategiyalari ishlab chiqilishi mumkin. Shu sababli EFA modeli mintaqaviy va tarmoq darajasida resurslardan samarali foydalanishni ta‘minlovchi ustuvor analitik vosita sifatida alohida metodologik ahamiyat kasb etadi. Quyida EFA modeli xususiyatlaridan kelib chiqib, Xorazm viloyatida paxta-to‘qimachilik klaster tarmog‘ining EFA modeli indikatorlarini tarkiblash va natijaga yo‘naltirish sxemasi ishlab chiqildi (1-rasm).



1-rasm. Xorazm viloyatida paxta-to‘qimachilik klaster tarmog‘ining EFA modeli indikatorlarini tarkiblash va natijaga yo‘naltirish sxemasi¹

Yuqoridagi paxta-to‘qimachilik klaster tarmog‘i EFA modeli indikatorlarini tarkiblanish xususiyatidan kelib chiqib, quyidagi matematik apparatni qurish mumkin, ya‘ni

$$\frac{GPV_j}{w_{IV}IV_j + w_{CE}CE_j} \rightarrow \max, \quad \frac{GPM_j}{w_{MC}MC_j + w_{CVP}CVP_j} \rightarrow \max \quad (1)$$

¹ Muallif ishlanmasi

$$\frac{IAI_j}{w_{IPC}IPC_j + w_{ITI}ITI_j} \rightarrow \max, \quad \frac{ExV_j}{w_{LTC}LTC_j + w_{DEI}DEI_j} \rightarrow \max \quad (2)$$

Bu yerda w – vazn koeffitsiyentlari, j – klaster tartibi.
EFA natijaviylik uchun quyidagi cheklanishlar o‘rinli

$$w_{IV}IV_j + w_{CE}CE_j \leq GPV_j \quad (3)$$

$$w_{MC}MC_j + w_{CVP}CVP_j \leq GPM_j \quad (4)$$

$$w_{IPC}IPC_j + w_{ITI}ITI_j \leq IAI_j \quad (5)$$

$$w_{LTC}LTC_j + w_{DEI}DEI_j \leq ExV_j \quad (6)$$

Mazkur munosabatlar EFA doirasida qaror qabul qiluvchi birlik (klaster)lar uchun qo‘yiladigan samaradorlik cheklovini o‘lchaydi. Biroq, keltirilgan input-output tizimida ko‘rsatkichlar turli iqtisodiy o‘lchamlarni ifoda etishi va undan kelib chiqadigan tafovutlar muayyan bir me‘yordan foydalanishni, aniqlik uchun input-output tizimi parametrlari uchun maxsus intervallarni talab etadi. Shunday bo‘lsada, EFA modelida input va output o‘zgaruvchilarning haqiqiy qiymatlarini birlik kesmaga normallashtirish amalda maqbul emas, chunki bu jarayon modelning iqtisodiy mazmunini buzadi va natijalarning nisbiy talqinini o‘zgartiradi. EFA modeli mohiyatan nisbiy samaradorlikni o‘lchaydi, ya’ni har bir klaster natijasi boshqalar bilan solishtiriladi. Shu sababli, o‘zgaruvchilarning asl miqyosdagi nisbatlari va o‘lchov birligi modelning strukturaviy barqarorligini ta’minlaydi. Agar input va outputlar 0–1 oralig‘iga majburiy moslashtirilsa, u holda ma’lumotlardagi dispersiya, masshtab farqlari va real iqtisodiy ta’sir o‘zgaradi. Natijada EFA algoritmi vaznlarni sun’iy masshtab asosida qayta taqsimlaydi, bu esa haqiqiy samaradorlik bahosini buzadi. Ayniqsa, output qiymatlari juda katta yoki kichik bo‘lgan klasterlar normallashtirishdan so‘ng nisbatan tenglashtirilib, modelda ularning real ustunligi yoki zaifligi yo‘qoladi. Shu bois, EFAda o‘zgaruvchilarni normallashtirish o‘rniga ularni bir xil o‘lchov birliklariga keltirish yoki masshtab sezgirlikni nazorat qilish afzal hisoblanadi. Bu holda odatda quyidagi normallashtirish opsiyasidan foydalaniladi.

$$\begin{cases} \max 1 = \max_{w_1, w_{IV}, w_{CE}} w_1 GPV_j \\ w_{IV}IV_j + w_{CE}CE_j = 1 \\ w_{IV}IV_j + w_{CE}CE_j \leq w_1 GPV_j \\ w_1 > 0, w_{IV} > 0, w_{CE} > 0 \end{cases} \quad (7)$$

Bu yerda: w_1 – EFA natijasini kengroq, biroq chekli intervalda ko‘rib chiqishga imkon beruvchi vazn koeffitsiyenti.

Xuddi shu kabi qolgan EFA modelining input-output parametrlariga nisbatan ham qo‘llaniladi. E’tibor berilsa, bu yerda asosiy natija w_1 ning miqdoriy o‘zgarishiga bog‘liq bo‘lib qoladi, ya’ni EFA modelda aynan shu parametrga optimallik yuki qo‘yiladi.

Mazkur EFA modellashtirish natijalari paxta-to'qimachilik klasterlarining ishlab chiqarish samaradorligini baholashga qaratilgan bo'lib, unda GPV (yalpi mahsulot yetishtirish hajmi) chiqish (output) ko'rsatkichi, IV (kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi) va CE (klasterdagi o'rtacha bandlik) esa kirish (input) omillari sifatida qabul qilingan. Natijalarga ko'ra, qaror qabul qiluvchi birlik (klaster)lar ichida Kobotex MCHJ, Xazorasp Teks MCHJ, Shovot Tekstil QK MCHJ hamda Urganch klaster MCHJ 1,000 samaradorlik indeksiga ega bo'lib, ular nisbiy samarador klasterlar sifatida e'tirof etiladi. Bu klasterlarda mavjud investitsiyalar va bandlik darajasi nisbatan optimal tarzda GPV ko'rsatkichini ta'minlagan. Ularning resurslardan foydalanish samarasi yuqori bo'lib, ishlab chiqarish natijalari o'z potensial chegarasida amalga oshganini ko'rsatadi. Boshqa klasterlar esa 0,571 dan 0,961 gacha bo'lgan samaradorlik indekslariga ega bo'lib, bu ularning ishlab chiqarish resurslaridan to'liq foydalana olmaganini bildiradi.

Tahlil natijalarini umumlashtiradigan bo'lsak, Xorazm viloyatidagi paxta-to'qimachilik klasterlari o'rtasida samaradorlik tafovutlari mavjud bo'lib, bu tafovutlar asosan kapital sig'imi, texnologik modernizatsiya darajasi va mehnat unumdorligi bilan belgilanadi. DEA natijalari boshqaruv organlari uchun har bir klasterning ichki zaxiralarini aniqlash, investitsiya siyosatini qayta ko'rib chiqish hamda resurslardan foydalanish mexanizmlarini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, past samaradorlikka ega klasterlar uchun ishlab chiqarish texnologiyalarini yangilash, logistika va boshqaruv samaradorligini oshirish orqali GPV ko'rsatkichini oshirish imkoniyati mavjud.

Navbatdagi EFA modellashtirish mintaqada paxta-to'qimachilik klasterlarining yalpi foyda marjasi (GPM) asosida iqtisodiy samaradorligini baholashga qaratilgan bo'lib, bunda marketing xarajatlari (MC) va xomashyo narxlarining o'zgaruvchanlik koeffitsiyenti (CVP) input omillari sifatida tanlangan. Ushbu yondashuv klasterlarning foydalilik darajasini ta'minlashda xarajatlar hajmi va bozor narxlari tebranishiga bo'lgan moslashuvchanligini aniqlash imkonini beradi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, tahlil qilingan 10 ta klaster ichida faqat Great Cotton Export MCHJ va Khiva Cluster MCHJ 1,000 samaradorlik indeksiga ega bo'lib, ular DEA bo'yicha etalon (eng samarali) klasterlar sifatida ajralib turadi. Bu ularning marketing strategiyasi, xomashyo narxlaridagi o'zgarishlarga nisbatan moslashuvchanlik va foyda shakllantirish mexanizmlari optimal darajada ekanini anglatadi. To'liq tahlil natijalariga tayansak, paxta-to'qimachilik klasterlarining ichki iqtisodiy mexanizmlarida marketing samaradorligi va xomashyo xarajatlari tebranishlariga nisbatan barqarorlik muhim o'rin tutishini ko'rsatadi. Samaradorlik indeksi past bo'lgan korxonalar uchun asosiy vazifa marketing strategiyasini optimallashtirish, yetkazib berish zanjirini diversifikatsiya qilish hamda narx risklarini boshqarish tizimini kuchaytirish hisoblanadi. Shunday chora-tadbirlar orqali klasterlar nafaqat yalpi foyda marjasini oshiradi, balki raqobatbardoshlikni mustahkamlaydi va tarmoqning barqaror rivojlanishiga zamin yaratadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Paxta-to‘qimachilik klasterlarining iqtisodiy salohiyatidan foydalanish darajasi mintaqalar kesimida farqlanishi aniqlangan. EFA (DEA) modellashirish asosida ayrim klasterlarda resurslardan optimal foydalanish orqali yuqori ishlab chiqarish natijalari shakllangani, boshqa klasterlarda esa mavjud resurslardan foydalanish darajasi pastligi kuzatilgan. Samaradorlik darajasidagi tafovutlar investitsiya hajmi, texnologik modernizatsiya, mehnat unumdorligi, marketing xarajatlari va logistika infratuzilmasi bilan bog‘liqligi asoslangan.

Yuqori samarador klasterlarda ishlab chiqarish zanjiri yaxlitligi ta‘minlangan, resurslar muvozanatli taqsimlangan va innovatsion faoliyat barqaror yo‘lga qo‘yilgan. Past samarador klasterlarda ishlab chiqarish jarayonlarining uzviyligi yetarli emasligi, texnologik darajaning pastligi va boshqaruv mexanizmlarining sustligi qayd etilgan. Bu holatlar yalpi mahsulot hajmi, foyda marjasi va eksport ko‘rsatkichlariga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi.

Paxta-to‘qimachilik klasterlarining iqtisodiy salohiyatini oshirish uchun ishlab chiqarish jarayonlarini raqamlashtirish va texnologik yangilanishni jadallashtirish zarur. Zamonaviy texnologiyalarni joriy etish mehnat unumdorligini oshiradi, tannarxni kamaytiradi va mahsulot sifatini yaxshilaydi. Innovatsion faoliyatni kengaytirish orqali yangi mahsulot turlarini ishlab chiqarish va qo‘shimcha qiymatni oshirish imkoniyati yuzaga keladi.

Logistika va ta‘minot zanjirini rivojlantirish ishlab chiqarish samaradorligiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Transport xarajatlarini optimallashtirish, yetkazib berish muddatlarini qisqartirish va eksport infratuzilmasini takomillashtirish mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshiradi. Marketing faoliyatini tizimli rivojlantirish va bozor talabiga moslashuvchanlikni kuchaytirish foydalilik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Investitsiya jarayonlarini kengaytirish va moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlarini yaxshilash klasterlarning barqaror rivojlanishiga zamin yaratadi. Investitsiyalarni texnologik modernizatsiya va innovatsion loyihalarga yo‘naltirish ustuvor ahamiyatga ega. Kadrlar salohiyatini rivojlantirish, malaka oshirish tizimini takomillashtirish va ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan hamkorlikni kuchaytirish innovatsion rivojlanishni qo‘llab-quvvatlaydi.

Paxta-to‘qimachilik klasterlarida resurslardan samarali foydalanish, ishlab chiqarish va boshqaruv jarayonlarini optimallashtirish, innovatsiya va investitsiyalarni kengaytirish orqali iqtisodiy salohiyatni oshirish imkoniyati mavjud. Ushbu yondashuv klasterlarning raqobatbardoshligini kuchaytiradi, eksport hajmini oshiradi va mintaqaviy iqtisodiy rivojlanish barqarorligini ta‘minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabr PF-158-son ““O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni <https://lex.uz/en/docs/-6600413>

2. Nasimov B.V. Paxta-to‘qimachilik klasterlarida ishlab chiqarish zaxiralarini boshqarishning ilmiy-metodologik masalalari. – Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti, 2024.

3. Kholikova R.S. Improving the methodology for assessing the efficiency of cotton-textile clusters in Uzbekistan. – Tashkent State University of Economics, 2022

1. 4.Shadmanov B.S. Paxta-to‘qimachilik klasterlarining investitsion faolligi va rivojlanish omillari. – ilmiy maqola.

4. B. A. Davlyatov, Prospects For Cotton and Textile Clusters in Uzbekistan, International Conference of Economics, Finance and Accounting Studies, Tashkent Institute of Textile and Light Industry, 2023.

5. Грядов С.И., Ковалева И.В. Агропромышленный кластер: проблемы и перспективы развития // Вестник Алтайского государственного университета. – 2009. – № 4 (54). – С. 98–105.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali



Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhih: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2026-yil, fevral, 2-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610
Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: 9710. FOCT 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlato standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**